



## YOSHLARDA HOSIL QILINGAN MA`NAVIY IMMUNITET - IJTIMOIIY XAVFLARGA QARSHI MUSTAHKAM QALQON.


**Davronova Aziza Otabekovna**

Agronomiya va biotexnologiya fakulteti  
2-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10554024>


**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o`smir-yoshlarni tashqi olamdan keladigan turli xavf-xatarlarning hujumidan saqlovchi muhim omil bu-ma`naviy olam ekanligi va bu himoya vositasini shakllantirishda yordam beruvchi qo`shimcha parametrlar va yoki shaxslar haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so`zlar:** xavf-xatar, loqaydlik, sarmo, xotin-qizlar, illat, moddiy olam, Bugungi kunda aksariyat rivojlangan davlatlarning mafkurasi qadriyatlar va demokratik tamoyillarga asoslanadi. Ularda tinchlik va taraqqiyot, inson haq-huquqlari va erkinligi, milliy va diniy totuvlik g`oyalari ustuvordir [1]. Ammo, kishini o`ylashga majbur qiladigan tomoni shundaki, davlatlardagi mavjud bunyodkor g`oyalarni teskari ag`daruvchi, jamiyatni parokandalikka yuz tutushiga sabab bo`luvchi millatchilik, shovinizm, irqchilik, diniy ekstremizm kabi turli siyosiy kuchlar va oqimlar ham bor. Bunday yot g`oyalar esa tabiiyki, davlatni har jihatdan rivojlanish cho`qqisi tomon yetaklovchi ta`bir joiz bo`lsa "katta strategik kuch" hisoblanmish yoshlarga o`zining salbiy ta`sirini ko`rsatadi. Aksariyat holatlarda, mustaqil hayotga dastlabki qadamlarni tashlay boshlayotgan o`smirlar bunday xavflarning qurboni bo`lishadi. Bunga o`smir yoshlarning ma`naviy hamda moddiy olam o`rtasidagi muvozanatning buzilib, insoniyat hayotida moddiyatning ustun qo`yilishi vaholanki, ma`naviy olamining sayozlashib, unda bo`shliqlarning hosil bo`lishini sabab sifatida ko`rsatish mumkin. Bugun biz yashab turgan zaminda globallasuv aniqroq qilib aytadigan bo`lsak, hayot sur`atlarining tezlik bilan rivojlanish jarayoni hukm surmoqda. Keyingi yillarda insoniyat hayotiga turli yengilliklarning olib kirilishi, ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik muammolarning yechim topilishiga asos bo`luvchi ilm-fan yutuqlarining negizida aslida jadallasuv yotadi [2]. O`zbek xalqida bir maqol bor. Guruch kurmaksiz bo`lmaydi. Globallasuvning dunyo mamlakatlari aholisiga ijobiy tarafi bo`lishi bilan bir qatorda, jahonda yuz berayotgan foydali yangiliklarni qo`ya turing, jamiyatga o`zining yot ta`sirini o`tkazmasdan qolmaydigan ko`ngilni xira qiladigan ma`lumotlarning tezlik bilan ildiz otishi kabi salbiy tomonlari ham mavjud. Avvalambor, "ommaviy madaniyat" ko`rinishida kirib kelayotgan turli tahdidlar, giyohvandlik, diniy ekstremizm, missionerlik kabi balo-qazolardan yoshlarimizni asrash, ularning ta`lim-tarbiyasiga har birimiz mas`ul ekanimizni hech qachon unutmasligimiz





kerak.Bu borada biz asrlar mobaynida shakllangan milliy an`analarimizga,ajdodlarimizning boy ma`naviy merosiga tayanamiz[2].Ona vatanimiz sarhadlarini qanchalik daxlsiz himoya qilishni har bir o`zbek farzandi o`zi va vatani oldidagi muqaddas burchi sifatida bilsa,Ozbekistonning ertangi kelajagi hisoblanmish yoshlarni turli zararli g`oyalardan saqlashni ham vatan taqdiriga befarq bo`lmagan “askar” o`zining vazifasi sifatida anglamog`i lozim deb o`ylayman.Biz o`sib kelayotgan yosh avlodni ona vatanga va atrofdagi tabiiyki,har bir jonga hurmat,yuksak metin irodali,ruhiy va jismoniy taraflama sog`lom shaxs sifatida tarbiyalashda umuminsoniy qadriyat va an`analar negizida shakllanuvchi ma`naviy immunitetga murojaat qilmog`imiz lozim.Jahon keng bo`lishiga qaramay, texnologiyalarning mo`jizasi o`laroq har qanday hoh u ijobiy, hoh u salbiy bo`lgan yangiliklarning tarqalishida soniyalar talab etilmaydi.Farzand dunyoga kelar ekan, uning jamiyatda o`z o`rnini topishi uchun oilasi,qo`ni-qo`shni hatto, mahalla-ko`y mas`ul.Bu jarayonga e`tiborsizlik sifatida qarashni vatan taqdiriga befarqlik deb baholash mumkin.Mashhur faylasuflardan biri ana shu hayotiy haqiqatni chuqur tahlil etib,quyidagi haqqoniy fikrlarni bayon qilgan: “Dushmanlardan-qo`rqma-nari borsa,ular seni o`ldirishi mumkin.Do`stlardan qo`rqma-nari borsa,ular senga xiyonat qilishi mumkin.Loqayd odamlardan qo`rq-ular seni o`ldirmaydi ham,sotmaydi ham,faqat ularning jim va beparvo qarab turishi tufayli yer yuzida xiyonat va qotilliklar sodir bo`laveradi”[3].Zero,bolaning turli yot illatlarga qarshi tura bilishida muhim rol o`ynaydigan ma`naviy olamining qanchalar boyligi eng avvalo, unga berilgan odilona tarbiyaga bog`liq.Bundan tashqari,yurtimizda farzandning kamol topishida ta`lim va tarbiyaning uyg`unlikda olib borilishiga muhim e`tibor qaratilayotgani bejizga emas.Agar farzandimizga to`g`ri tarbiya bermasak,har kuni,har daqiqada uning yurish-turishi,kayfiyatidan ogoh bo`lib turmasak,ularni ilm-u hunarga o`rgatmasak,munosib ish topib bermasak,bu omonatni boy berib qo`yishimiz hech gap emas[4].Bugun mamlakatimizda yoshlarning bog`cha, maktab va oliy ta`lim muassasalariga bo`lgan qamrovi har qachongidanda ko`proq.Bunga asosiy sabab,ularni ilmi qilish bilan bir qatorda xalqning turmush sharoitini yaxshilash yotadi.So`nggi yillarda aholimiz orasida kitobxonlik madaniyatini keng targ`ib etib,ularning ma`naviyatini oshirish bo`yicha tizimli loyihalarning tashkillashtirilganligini yuqoridagi mavjud muammoga bir yechim sifatida ko`rsatish mumkin.Shu bilan bir qatorda, mamlakatimizda xotin-qizlarning o`qib,ta`lim olishi uchun yaratilgan ko`plab imkoniyatlardan bilishimiz mumkinki,ular bo`lajak ona sifatida ertamiz egalari bo`lgan yoshlarni har tomonlama yetuk shaxs sifatida ulg`ayishiga o`zining





munosib hissasini qo`shadigan eng asosiy,omil sifatida ko`rishimiz mumkin.Biz xotin-qizlarning yoshlar tarbiyasi uchun mas`ul shaxs ekanligini inobatga olgan holda,"Qiz bola uchun eng yaxshi sarpo- unga berilgan to`laqonli ta`limdir[5]"Dunyo shiddat bilan o`zgarib,barqarorlik va xalqlarning rivojlanishiga raxna soladigan turli yangi tahdid va xavflar paydo bo`layotgan bugungi kunda ma`naviyat va ma`rifatga,axloqiy tarbiya,yoshlarning bilim olishi,kamolga yetishga intilishiga e`tibor qaratish har qachongidan ham muhimdir[2].

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

- 1.Milliy istiqlol g`oyasi:asosiy tushuncha va tamoyillar.T.:O`zbekiston 2000-y. 22-bet
- 2.Milliy taraqqiyot yo`limizni qat`iyat bilan davom ettirib,yangi bosqichga ko`taramiz. Sh.M.Mirziyoyev Toshkent:O`zbekiston, 2017 1-tom,89-bet,27-bet.
- 3.Yuksak ma`naviyat yengilmas kuch I.A.Karimov Toshkent:Ma`naviyat 2010-y 124-bet.
- 4.Vatanimiz taqdiri va kelajagi yo`lida yanada hamjihat bo`lib,qat`iyat bilan harakat qilaylik."Xalq so`zi", 2017-y 16-iyun.
- 5."Zakovat Gambit" shaxmat turnirining g`oliblarini taqdirlash marosimida S.Sh.Mirziyoyeva nutqidan 2023-y.

